

## JADID MA'RIFATPARVARI MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING KUTUBXONA SOHASIDAGI XIZMATI

**Xasanbayeva Shoiraxan Baxtibayevana**

*Yunusobod tuman axborot kutubxona markazi*

*Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish xizmati rahbari*

**Annotatsiya:** XIX arning oxiri XX asr boshlarida jadidchilar harakati bilan Turkistonda bir necha hususiy kutubxonalar ochilish boshlandi. Ularga Obidjon Mahmudov tashkil etgan "G'ayrat", Abdulla Avloniy tashkil etgan "Turon" Qo'qonlik Jadidchi Ibrohim Davron tashkil etgan "Modaro", Mirzo Xo'qondiy tashkil etgan "Ma'rifat", Namanganda Isoqxon Ibrat tashkil etgan "Kutubxonayi ibrat", Isoq Koshipovich tashkil etgan "Koshifiya" kutubxonalari ochila boshlandi. maqolada shular haqida ma'lumot beriladi.

Jadid ma'rifatparvarlarining ilm-ma'rifat, ijtimoiy va siyosiy hayot, davlat boshqaruvi va yoshlar tarbiyasiga doir qarashlari va amaliy faoliyati, xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy va boshqa jadidlarning ilm-ma'rifat va ta'lim-tarbiyaga oid faoliyatini o'rganishning ahamiyati, jadidlarning ta'lim va tarbiya metodlari, usul va vositalari hamda ularni tatbiq etish xususiyatlari, jadidchilik harakati va allomalari faoliyatining jahon miqyosida o'rganilishi, jadid ma'rifatparvarlarining ilmiy va ma'naviy merosini yoshlar orasida targ'ib etishda ulkan hissalar bor.

**Kalit so'zlar:** Mahmudxo'ja Behbudiy, yangi jadid maktabi, darslik, matbuot, ma'rifat tarqatish, ma'rifatparvar adib.

**Абстрактный:** В конце XIX — начале XX века в Туркестане в результате движения джадидов стало открываться несколько частных библиотек. Стали открываться библиотеки "Гайрат", основанные Обиджоном Махмудовым, "Турон", основанные Абдуллою Авлоном, "Модаро", основанные Джадидчи Иброхимом Давроном из Коканда, "Маърифат", основанные Мирзо Хоканди, "Кутубхонаи Ибрat", основанные Ишoкxoном Ибрatом в Намангане, и "Кошифия", основанные Исоком Кошиповичем. их. В статье представлена информация о них.

*Рассмотрены взгляды и практическая деятельность мыслителей-просветителей-джадидов по вопросам науки, общественно-политической жизни, государственного управления, воспитания молодежи, в частности, отмечено значение изучения научной, образовательной и воспитательной деятельности Махмудходжа Бехбудий, Мунаввара Кори, Абдуллы Авлоний и других джадидов, методов, способов и средств обучения и воспитания джадидов, особенностей их реализации, глобальное изучение деятельности джадидского движения и его ученых, их большой вклад в пропаганду научного и духовного наследия мыслителей-просветителей-джадидов среди молодежи.*

**Ключевые слова:** *Махмудходж Бехбудий, новая джадидская школа, учебник, пресса, распространение просвещения, просвещенный писатель.*

**Abstract:** *In the late 19th and early 20th centuries, several private libraries began to open in Turkestan with the Jadid movement. These included the "Gayrat" libraries founded by Obidjon Makhmudov, the "Turon" libraries founded by Abdullah Avloni, the "Modaro" libraries founded by the Jadidist Ibrohim Davron from Kokand, the "Ma'rifat" libraries founded by Mirzo Khoqondi, the "Kutubxonayi Ibrat" libraries founded by Ishoqkhon Ibrat in Namangan, and the "Koshifiya" libraries founded by Isoq Koshipovich. The article provides information about them.*

*The views and practical activities of the Jadid Enlightenment thinkers on science, social and political life, public administration, and youth education, in particular, the importance of studying the scientific, educational, and educational activities of Mahmudkhoj Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, and other Jadids, the methods, methods, and means of education and upbringing of the Jadids, and the characteristics of their implementation, the global study of the activities of the Jadid movement and its scholars, and their great contribution to promoting the scientific and spiritual heritage of the Jadid Enlightenment thinkers among young people.*

**Keywords:** *Mahmudkhoj Behbudiy, new Jadid school, textbook, press, dissemination of enlightenment, enlightened writer.*

Bugungi kunda mushtarak tariximizni yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma'rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o'z qimmatini va ahamiyatini yo'qotmasdan kelayotgan boy merosini teran tadqiq va targ'ib etish bizning ustivor vazifamiz hisoblanadi. Tarixan ma'lum, zaminimiz allomalar yurti

hisoblanib, bunday zamin, albatta, o‘zining madaniy yodgarliklari, bebaho asarlariga boy sanaladi. Mazkur madaniy me‘ros yosh avlodni barkamol etib voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Savodsizlikni tugatish uchun dastlab yangi usul (uslub) jadid maktablarini tashkil etdilar. Bu usul Qrimda 1884-yili Ismoil Gasprinskiy tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, 12 bola tomonidan o‘qilib, 40 kunda savodini chiqargan. Ismoil Gasprinskiy 1893-yilda Toshkentga kelib, ziyoli-ulamolar bilan uchrashib, jadid (yangi) maktablar haqida ma‘lumot beradi. Turkistonda birin-ketin yangi usul maktablari ochila boshlaydi. Birinchi bo‘lib Xusainov mablag‘i hisobiga 1893-yilda Samarqandda, 1898-yili Qo‘qonda Salohiddin domla tomonidan, 1899-yilda Eski shahar, Toshkentda Mannon qori, Andijonda Shamsiddin domla tomonidan jadid maktablari ochila boshlandi.

1900-yili Buxoroda Jo‘raboy qori tomonidan, 1903-yili Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z mablag‘i hisobidan yangi usul maktabini tashkil etadi.

Ma‘lumki, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston shahar va qishloqlarida masjidlar, oliy, o‘rta va quyi madrasalarning kutubxonalari musulmon jamoalari ommaviy foydalanishi uchun mo‘ljallangan kutubxonalar, xonaqohlar qoshidagi kutubxonalar faoliyat ko‘rsatishda davom etdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy matbuot sahifalarida e‘lon qilingan ko‘plab maqolalarida savdo va ishlab chiqarish vakillarini boshlangan xayriya ishlarini moddiy jihatdan qo‘llab quvvatlashga da‘vat qiladi. U shunday maqolalardan birida “Millatga dalda berish, maktablar islohi, yoshlarimizni Yevropa oliy o‘quv yurtlariga kirishlarga tayyorlash, umummilliy ishlarni amalga oshirish uchun bizga “Xayriya jamiyatlari”, kutubxonalar, jamg‘armalar, turli to‘garaklar, gazetalar, jurnallar, nashriyotlar va hakazolar kerak” deb yozgan edi.

1903-yili alloma tashabbusi bilan shogirdlari Siddiqiy Ajziy Halvoyi, Abduqodir Shakuriy Rajabamin qishlog‘ida, Hoji Muin Xo‘ja Nisbatdor mahallasida jadid maktablarini ochadilar.

Behbudiy 1908-yili “Qiroatxonayi Behbudiya” (keyinchalik “Behbudiya” nomi bilan mashhur bo‘lgan) kutubxonasini ochadi. Ushbu kutubxona ikki navbatda – soat 9.00 dan 17.00 gacha va soat 18.00 dan tungi 24.00 gacha ishlab, 60–110 atrofida kitobxonga xizmat ko‘rsatgan. Alloma “Samarqand kutubxona islomiyasi”

maqolasida kutubxonada 600 ta kitob va risola, gazeta va jurnallar esa undan ham ko‘p bo‘lganini yozadi.

1914-yilgi sayohati davomida Kavkaz, Qrim, Turkiya, Yunoniston, Bulg‘oriston, Avstriya va Germaniyaning turli shaharlarida bo‘lib, u yerlardan o‘z kutubxonasi uchun juda ko‘p kitob va risolalar olib keladi.

Umuman olganda “Kutubxonai-Behbudiya”ning kitob fondi barcha manbalar miqdoriga ko‘ra Turkistondagi eng boy kutubxonalardan biri bo‘lgan. Kutubxona fondida Qur‘oni Karimning har xil nashrlari, hadislar to‘plamlari, fan va bilimning turli sohalariga oid dunyoviy mazmundagi turkiy, fors, turk, arab, rus, nemis, fransuz, ingliz tillaridagi kitoblar to‘plangan.

Faqat birgina tarixga oid adabiyotlar ichida “Buyuk umumiy tarix”, uch jildli “Madaniyat tarixi”, “Tarixiy istiqbol”, “Islom tarixi”, “Islom olami va Ovrupo XX asrda”, “Turkiy xalqlar tarixi”, “Madaniyat tarixi”, “Shohlarning g‘alabalar kitobi”, “Usmoniylar saltanati ko‘zgusi”, “Islom madaniyati tarixi”, “Amir Temur”, “Islom tarixi”, “Buyuk Eron tarixi”, “Amerikaning kashf etilishi tarixi” kitoblari bor edi.

XIX asrning so‘nggi yillari va XX asrning birinchi yarmida Turkiston o‘lkasi ilg‘or mahalliy aholi vakillarining tashabbusi bilan yangi ilmiy, madaniy va ma‘rifiy jamiyatlar paydo bo‘la boshladi. Mahalliy ma‘rifatparvar va ziyolilari ham kutubxonalarning kitoblar bilan boyishiga o‘z hissalarini qo‘shishgan. Mahmudxo‘ja Behbudi (1875–1919) tomonidan yozilgan qitoblari Turkistonda kitobga bo‘lgan, kitob mutolaasiga bo‘lgan qiziqishni oshirgan va maktablarda ushbu kitoblar o‘qitilgan. Ma‘rifatparvar Abdulla Avloniy (1878–1934 yy.) o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobida Turkiston bolalarining ilmi va kitobga bo‘lgan munosabati, kitobning inson tarbiyasi, axloqidagi va ma‘naviy kamolotidagi o‘rniga alohida etibor qaratgan. Abdurauf Fitrat (1886–1938 yy.) kitoblarida esa insonlar o‘rtasidagi yaxshiliklar, tarbiyaning go‘zal bo‘lishi va bolalarning ilmini yuksaltirishda lozim bo‘ladigan axloqiy me‘yorlar to‘g‘risida yozilgan. O‘zbekiston Milliy arxiv hujjatlariga ko‘ra, Turkiston o‘lkasida dastlabki musulmon kutubxonalaridan biri Samarqand viloyatida ochilgan. O‘zMA fondida saqlanayotgan Mahmudxo‘ja Behbudi tomonidan asos solingan kutubxona to‘g‘risidagi ma‘lumotlar buni tasdiqlaydi.

Samarqandda 1907 yil 12 sentyabrda Mahmudxo‘ja Behbudiyning tashabbusi bilan otasi sharafiga “Behbudiya kutubxonasi” deb atalgan kutubxona tashkil

qilingan. Uning kutubxonasi Turkistondagi musulmon kutubxonalari ichida kitobga boy hisoblanib, undan Munavvar qori tomonidan maktablar uchun yaratgan “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Er yuzi” kabi darsliklar hamda Abdulla Avloniy asos solgan “Shuhrat” gazetasi va maktab uchun to‘rt qismdan iborat “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi kitoblari ham joy olgan. Abdulla Avloniy maktab-maorif ishlariga ko‘mak ko‘rsatuvchi “Jamiyati xayriya” tashkil etilib, “Nashriyot” shirkati tuzib, Xadrada “Maktab kutubxonasi” kitob do‘konini ochadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy va Fitrat kabi boshqa milliy taraqqiyparvarlar ham ma‘rifatparvarlik faoliyatini olib borib, yangi maktablar, xayriya jamiyatlari, kutubxona hamda kitob do‘konlari ochdilar va ulardan mahalliy aholini ham bahramand bo‘lishlariga chaqirdilar.

Ular asos solgan kutubxonalarda ko‘plab kitobxonalar Alisher Navoiy, Mirzo Bedil va Boborahim Mashrab tomonidan yozib qoldirilgan kitoblarni mutolaa qilib, o‘z bilimlarini mustahkamlaganlar. Behbudiy asos solgan mazkur kutubxona tizimli faoliyat yuritgan va har yil yakunida Turkiston general-gubernatori devonxonasiga hisobot topshirib turgan. 1908 yildagi Samarqand viloyati musulmonlar kutubxonasining hisoboti ikki (o‘zbek va rus) tilida yozilgan.

Hisobotda kutubxonaga qilingan xayr-ehsonlar ham hisob-kitob qilingan. 1908 yildagi kutubxona hisobotiga ko‘ra, a‘zolik badallari va xayr-ehsonlardan jami 970 rubl 75 kopeyk daromad ko‘rgani yozilgan bo‘lsa, chiqimlar 604 rubl 24 kopeykni tashkil etganligi qayd qilingan. Mazkur muassasadan asosan pedagoglar va maktab o‘quvchilari keng foydalangan. Boshqa shaharlarda ham kutubxonalar bo‘lgan. Buxoroda mahalliy mudarrislarining kutubxonalari mavjud bo‘lgan. Xivada ishchilar tomonidan kutubxona uchun pul hadiya etilgan va bu mablag‘ga kutubxona ochilib, undan ko‘pchilik foydalangan. Farg‘onada ham mahalliy aholi tomonidan asos solingan “G‘ayrat” kutubxonasi faoliyat yuritgan. Turkiston mahalliy pedagog va ziyoliy aholi uylarida ham kutubxonalar bo‘lib, ularning katalogidan maktab darsliklari, mahalliy gazeta va jurnallar asosiy o‘rin egallagan.

Buxoroda yosh buxoroliklar tomonidan “Ma‘rifat” kutubxonasi tashkil etilgan. Uning fondida mamlakat va xorijda chop etilgan yangi adabiyotlar, gazeta va jurnallar, jumladan, Istanbulda chop etilgan “Hikmat”, “Siroti Mustaqim”, “Ta‘rifi

muslimin” jurnallari, Rossiyada chop etilgan “Tarjimon”, “Irshod”, “Vaqt” gazetolari va “Sho‘ro” jurnali, Turkistonda chop etilgan jadid matbuoti namunalari mavjud edi.

Noshirlik faoliyati, kitob savdosi va kutubxonachilik ishi bilan shug‘ullanuvchi birinchi kitob uyi-“Ma’rifat” shirkati jadidchilik harakatining ashaddiy tarafdorlaridan biri noshir R.Rasulzoda tashabbusi bilan 1912-yilda ochildi. Ikkinchi kitob uyi “Madora” 1914-yilda Qo‘qonning Beshariq mahallasida ma’rifatparvar Ibrohim Davron tomonidan tashkil etildi. Hamza Hakimzoda Niyoziy qisqa vaqt ichida ikkita “G‘ayrat” (1915) va “Birlik” (1916) kitob uylarini tashkil etdi. Shu davrda kitob noshirligi va savdosi, ayrim hollarda kutubxonalar va qiroatxonalar tashkil etish bilan o‘sha davrdagi boshqa shirkatlar ham shug‘ullangan.

Ular orasida Toshkentdagi “Nashriyot” (1914), “Maktab” (1916), “Nashri maorif”, Buxorodagi “Barakat” (1914), Samarqanddagi “Zarafshon” shirkatlari mavjud edi. Ushbu shirkatlarning ta’sis shartnomasida ularning maqsadi musulmon aholi o‘rtasida Yevropa madaniyatini gazetalar, jurnallar, kitoblar va ularning savdosi orqali yoyish, kutubxonalar va qiroatxonalar ochish orqali aholi o‘rtasida ma’rifat urug‘ini sochishni maqsad qilib qo‘yganligi takidlab o‘tilgan edi.

Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari shakllanishida sayohat, yurt kezish, dunyo ilmi va tajribasini o‘rganish ayniqsa katta rol o‘ynagan. U qayerga bormasin, o‘sha yerdagi idora usuli va jamiyatning demokratik jarayonlari bilan qiziqdi. Behbudiy asos solgan “Oyna” jurnalining 1914-1915-yillardagi bir qancha sonida bosilgan “Sayohat xotiralari” adib dunyoqarashi to‘g‘risida muayyan tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Bu borada nemis olimasi Ingebor Baldauf fikriga qo‘shilish mumkin. U ham ushbu masala haqida so‘z yuritib, agar “Oyna” Parijdan Yaponiyaga qadar dunyoni O‘rta Osiyo burjuaziyasiga ko‘rsatgan bo‘lsa, “Sayohat xotiralari” Turkiston qarshisidagi musulmon Sharqini kashf etib berdi”, deb yozgan.

Shubhasiz, Behbudiy o‘z xalqi kelajagini faqat ma’rifat bilangina bog‘lamagan. Alloma o‘z xalqining kelajagi qanday kechishi lozimligi masalasi bilan ham qiziqqan. Shuning uchun boshqa davlatlar siyosiy tuzumini o‘rgangan va ularning qay biridan andoza olish mumkinligi to‘g‘risida bosh qotirgan. U o‘z xalqi taraqqiyotini nafaqat ma’rifati, balki siyosiy maqomining o‘zgarishida, mustaqilligini qo‘lga kiritishda, deb bilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M. Abdurashidxonov. (2001) Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar).
2. M. Behbudiy. (1917) Bizga isloh kerak// Najot.
3. M. Behbudiy. (1914) Sayohat xotiralari// Oina, №48.

**Internet saytlari:**

1. [https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0050/50\\_i\\_20241007\\_135010\\_6.18.pdf](https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0050/50_i_20241007_135010_6.18.pdf)
2. <file:///C:/Users/user/Downloads/jadidchilar-milliy-kutubxonalar-asoschilari-xix-asr-oxiri-xx-asr-boshlari.pdf>
3. <https://www.bukhari.uz/?p=36276&lang=oz>
4. <https://jadid.uz/jadids/mahmudxoja-behbudiy/>